

NAZAR ESHONQUL IJODIDA FOLKLOR AN'ANALARI

Ahmedova Muxlisa

Urganch davlat universiteti 1-bosqich magistranti

ANNATOTSIYA:

Ushbu maqolada Nazar Eshonqulning hikoyalari tahlil qilingan. Uning „Bepoyon osmon” hikoyasidagi folklor an'analari ochib berilgan. Oyto'ldi obrazi orqali bir oilaning farzandsizligi haqida so'z yuritiladi. Hikoyada xalq tilidan keltirilgan ko'plab iboralar, maqollar, murojat –qarg'ishlardan o'rinli tarzda foydalaniladi.

TAYANCH SO'ZLAR: Oyto'ldi, farzandsizlik motivi, qarg'ishlar, Nazar Eshonqul, hikoya, „sichqon yili”, irimlar-sirimlar, Bibi Oyna.

Nazar Eshonqul adabiyotimizdagi yirik yozuvchilardan sanaladi. Ko'plab hikoya va qissalar muallifi. „O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat hodimi”. Uning hikoyalarda insondagi murakkab his-tuyg'ular, ruhiy kechinmalar, uning fikr –o'yi, orzu-intilishlari va xalq og'zaki ijodi namunalari mujassamlashgan.

Muallifning „Bepoyon osmon” hikoyasi ham yozuvchi ijodidan bir guldastadir. Hikoyada folklorning ko'plab namunalari uchramiz. Hikoyaning bosh qahramoni Oyto'ldi obrazi bo'lib uning ismi ham diqqatimizni tortadi. Oyto'ldi „to'lgan oy” degan ma'noni anglatadi. Xalq og'zaki ijodiga mansub ko'plab dostonlarda bu nomga duch kelishimiz mumkin. Asarda bir oilaning farzandsizligi haqida so'z yuritiladi.

Farzandsizlik motivini ko'plab dostonlarimizda ham uchratishimiz mumkin. Jumladan, Kuntug'mush” dostoni bunga yorqin misoldir. Biz bu orqali yozma adabiyot bilan og'zaki adabiyotni bevosita bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. Hikoya qahramoni Oyto'ldi juda mehribon, samimiy, va sabrli ayol obrazi sifatida tasvirlangan. Asli u menga yanga bo'lgan, lekin keyinchalik dadam va onamning xohishi say-harakati bilan faqat mening emas, o'zining yuvoshligi, jonsarakligi, tilidan „jonim”, „jonim” tushmasligi, teng- to'shlarimning hammasini „o'zinning bolam” deb erkalashi tufayli barcha qishloq bolalarining ham tutingan onasiga aylangan, ular ulg'ayib hayotning tashvishlariga o'ralashib qolib, o'z jujuqlariga ham mehr berishga, ko'nglini olishga, bironta bola og'rib, yotib qolganini eshitsa, pishiriqlar-u tabibchilikdan andoq xabardor bo'lgan otasidan o'rgangan qaynatmalarni damlab birpasga bo'lsa ham ko'rib, erkalab kelishga har qanday mahal, har qanday faslda, izg'irin-u jaziramada imkon topganidan hayratga tushgan umr daftarining bir burchida hamisha uyining bir chetida ko'cha to'ldirib



o'ynayotgan bolalarga havas va orzumand tikilib o'tiradigan mehribon ayol edi. Ammo u befarzand edi. Shu sababli uning Bibi Oynadan eshitmagan gapi qolmagandi. U barcha xo'rliklarga chidab kelayotgandi. Asarda xalq tilida ishlatiladigan maqollar, iboralar, so'kishlar va qarg'ishlarga ham duch kelishimiz mumkin. Misol uchun, „Akam bechora kunma-kun emas , soat sayin cho'kib boryapti, tirnoqqa zor o'tayapti. Bu erkatoiy keliningiz esa tug'ay demaydi. Akamni boshi egik ko'rgan sayin keliningizni g'ijimlab ezgilab tashlagim kelaveradi. Bu vaj dadamga ta'sir qilib indamay qolar , lekin baribir Xudoning ishiga aralashma deb indamay qo'yardi. Bu gap ammamni yanada qo'zg'ab qo'yardi. Agar gap faqat Xudoda bo'lsa indamasdim, lekin hamma ayb Oyto'ldining o'zida. Bu qorabosgurning o'zi qisir. Agar akam boshqaga uylanganda allaqachon bolali bo'lib ketardi'', kabi jummalarni keltirishimiz mumkin. Hikoyada qo'llangan „qisir'' so'zi orqali Oyto'ldi hayvonga o'xshatilmoqda.

Xalq orasida befarzandlarga nisbatan „tirnoqqa zor'' jumlasini ishlatiladi. Shuningdek Oyto'ldining „sichqon yili'' dan buyon farzand ko'rmayotgani aytiladi. O'n ikki yilning nomlanishi osmondagi o'n ikki burjga borib taqaladi. Bu qadimda insonlarning ov jarayoni bilan bog'liq . Ov payti suvdan o'n ikkita hayvon tirik o'tadi, bulardan birinchisi sichqon edi. Shuning uchun muchal boshi sichqon yili bilan boshlanadi. Bu ham qadimgi davr odatlarimizga borib taqaladi.

Katta O'rdada amakim va yangam bormagan avliyo-yu , aziz joylar, tabib-u folchilar qolmagandi. Lekin birontasidan naf bo'lmadi. Ammamning tili tobora yechilib borar, endi bu tug' qo'shni qishloqlarda, bizni, amakimni, dadamni bilgan barcha joyda hilpiradi. „ Tug'mas ayol bola parvarish qilib bolaning isini olsa, tug'ib ketadi'', - degan irimi uchun meni amakimga o'g'il qilib berishganmi haligacha bilmayman. Onam qo'limni ushlab , „ Seni dadang amakingga o'g'il qilib berdi , uch kungacha uyga borma, irimi shunday, yangang tuqqandan keyin qaytarib olib kelamiz'' , - dedi.

Ko'ramizki, asarning bu o'rinlarida xalq og'zaki ijodida , ya'ni xalq orasida ko'p ishlatiladigan va insonlar ishonib amal qiladigan irim- sirimlar haqida gap ketmoqda . Xususan, to'y va azalarda ishlatiladigan irimlar ham mavjud. Ayniqsa, „ Uch kun'' bu sonni xalq dostonlarimizda ko'plab uchratishimiz mumkin. Ammaning nazdida oilaning befarzand bo'lishiga Oyto'ldi sababchi. Hatto ular do'xtirga ham borishadi. Ma'lum bo'lishicha haqiqatdan ham barchasiga Oyto'ldi sababchi ekan. Shundan keyin ammam amakimni uylantirishga tushadi. Ammo u rozi bo'lmaydi. Oradan vaqt o'tadi. Amakim vafot etadi. Oradan ikki yil o'tgach yangam ham vafot etdi. Men vadamda turib tutingan yangamning izidan tobutini ko'tarib yig'lab bordim.



Keyinchalik qo'limga do'xtirning tashxis qog'ozlari tushib qoldi. Do'ktor bo'lganim uchun bir qarashda bular tashxis qog'ozlari ekanini angladim. Bu meni battar ajablantirdi. Ammam egalik qilishni istagan va hammaga ko'rsatib, amakimning sha'nini himoya qilmoqchi bo'lgan qog'ozlar edi bu. Unda yozilishicha, Oyto'ldi enamning tug'masligiga amakim sababchi bo'lgan ekan. Yangam el- yurt oldida amakimning boshi egilmasligi uchun bu sirni hammamizdan yashirgan va barcha xo'rlik malomatlariga chidagan . Hikoya shu tariqa yakunlanadi.

Nazar Eshonqul bu asari orqali o'sha davr ayollarining sabrini, oilaga sodiq va vafodor ekanini ochib bergan . Ko'rib o'tganimizdek, asarda xalq og'zaki ijodi , ya'ni folklorning ko'plab durdonalariga duch kelishimiz mumkin. Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, Nazar Eshonqulning barcha asarlari xalq tiliga yaqinligi va yuksak saviyasi bilan ahamiyatga molikdir. Ularni o'qir ekanmiz, xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotning naqadar uzviy aloqada ekanini bilishimiz mumkin. Bu jihatlar muallifning „ Qora kitob’’ qissasida ham ko'zga tashlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. O'zbek zamonaviy nasri antalogiyasi’’ O'zbekiston’’ Toshkent- 2022
2. Nazar Eshonqul . Qissalar va hikoyalar Toshkent : Sharq, 2008
3. Oxunjon Safarov O'zbek xalq og'zaki ijodi’’ Musiqa ’’ Toshkent, 2010.

